



THE ROLE OF FOLKLORE IN THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES

Fotima B. Kholmatova

Master's student

Pedagogical Institute of Termez State University

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Values, folklore, fairy tales, epics, pedagogical ideas, pedagogical technology.

Received: 02.05.22

Accepted: 04.05.22

Published: 06.05.22

Abstract: It is important to develop effective curricula and teaching strategies for educating preschool children in the spirit of national and universal values. The article is based on examples of folklore in the education of preschool children in the spirit of national and universal values.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBİYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

Fotima B. Xolmatova

Magistratura talabasi

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, ertaklar, dostonlar, pedagogik g'oya, pedagogik texnologiya.

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda maktabgacha ta'lim bo'yicha samarali o'quv rejasi va o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani xalq og'zaki ijodi namunalari orqali singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari asos qilib olingan.

РОЛЬ ФОЛЬКЛОРА В ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ В НАЦИОНАЛЬНОМ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ ДУХЕ**Фотима Б. Холматова***Магистрант**Педагогический институт Термезского государственного университета**Термез, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Ценности, фольклор, сказки, былины, педагогические идеи, педагогическая технология.

Аннотация: Важно разработать эффективную учебную программу и педагогическую стратегию воспитания дошкольников в духе национальных и общечеловеческих ценностей. Статья основана на примерах фольклора в воспитании дошкольников в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

KIRISH

Kelajak mevasi hisoblanmish bolajonlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash azal-azaldan ota bobolarimizdan milliy meros bo'lib kelayotgan urf-odat hamda an'analarni unut bo'lib ketmasligi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyatlar ta'rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin: Umuminsoniy qadriyatlar – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va hususiyatlar bilan bog'liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlar millatning tarixi yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati orqali namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Shunday ekan, bolalarga ta'lim berar ekanmiz, avvalo ularga o'zlarining “men”ini his qilishni o'rgatishimiz lozim. Buning uchun albatta ularni xalqimizni boshqa xalq va elatlardan ajratib turuvchi urf-odatlar hamda qadriyatlari bilan tanishtirib, ushbu qadriyatlarni ongida singdirib borishimiz lozim bo'ladi.

ASOSIY QISM

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda turli shakl hamda usullardan foydalanish mumkin. Xalq og'zaki ijod namunalaridan foydalangan holda bolalar ongida milliy qadriyatlarni singdirish esa eng samarali shakllardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasida ham shu asosda keng qamrovli ishlar olib borilayotganligini ta'kidlash joiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har bir guruhida “Kichik kutubxona”lar tashkil etilganligi ham buning yorqin misoli bo'la oladi. Ushbu kutubxonalarda asosan o'zbek hamda jahon xalqining og'zaki ijod namunalari asosida yaratilgan kitoblar keng o'rin egallagan.

Nafaqat O‘zbekiston, balki butun jahon maktabgacha ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan shaxs qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib, samarali ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’lim dasturlarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda maktabgacha ta’lim bo‘yicha samarali o‘quv rejasi va o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish, tarbiya tizimini jumladan; aqliy, ma’naviy-axloqiy tarbiyani folklor namunalari orqali singdirish, bu borada dunyo xalqlarining folkloridan foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo xalqlarining og‘zaki ijodida ma’lum bir xalqning pedagogik g‘oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma’naviy-axloqiy ideallari, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an’analari, qadriyatlar va falsafasi o‘ziga xos yo‘sinda o‘sha xalqning ibratli va qiziqarli hikoyalarida, allaqo‘shiq-lari, ertaklari va o‘gitlarida tasvirlangan. Bugungi globallashtirish jarayonida dunyo miqyosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning innovatsion modellari va mexanizmlarini ishlab chiqish, xalq og‘zaki ijodi namunalarini pedagogik texnologiyalar va ta’lim strategiyalari bilan o‘zaro uyg‘unlikda ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom muhitda ta’lim va tarbiya olishlarini ta’minlash bilan bir qatorda ularni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasb-hunarlarini egallashi, ma’nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg‘ularini yuksaltirish borasida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida —Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan. Mana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizda maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirish, uning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017-yilda “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5198-sonli farmonida ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yosh bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarni yanada chuqur singdirish, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish kabi fikrlar ilgari surilgan.

Shu bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son qarorining 1-ilovasi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizomda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar hamda badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilab qo'yilgan.

Darhaqiqat, yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishi uchun u xalq, vatan tarixi, ta'lim sohasidagi ajdodlar tajribasidan xabardor bo'lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatda bo'lish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan jarayonlardan biri bu – katta yoshdagi insonlar, ya'ni ota-onalar, tarbiyachilarning bolalar yoshiga, ularning dunyoqarashiga, ma'nan-axloqan, aqliy rivojlanishlariga mos bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish bilan bog'liqdir.

Xalq og'zaki ijodi janrlarining mohiyati va mazmuni hamda namoyon bo'lish shakllari bilan bog'liq muammolarning tahlili uzoq tarixga ega hisoblanadi. Kishilar qadim zamonlardan o'zlarini o'rab turgan olam, undagi narsa va voqea hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Shu yo'sinda o'z fikrlarini og'zaki ijod namunalarida, ya'ni kuylagan allalarida, ertak hamda hikoyalarida, shuningdek afsona va dostonlarda bayon etganlar.

Ushbu ijod namunalari og'izdan og'izga o'tib hozirgi kunga qadar xalqimiz ongi va xotirasida muxrlangan. Bundan tashqari o'zbek xalq ertaklari bolajonlarimiz uchun to'plamlar hamda kitobchalar shaklida chop etilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalash uchun aynan ertaklardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu fikrlarni bayon etar ekanmiz, avvalo bir savol tug'iladi. "Hozirgi kun tarbiyachilari qancha ertak biladi?" aynan shu savol og'riqli nuqtalarimizdan birini ochib beradi. Ho'sh, hozirgi kun tarbiyachilari, nafaqat tarbiyachilar balki ota-onalar qancha ertak biladi? Hozirgi kun bolalari ertak eshitayaptimi o'zi? Afsuski, bu savollarga har doim ham ijobiy javob bera olmaymiz. Chunki hozirgi axborotlashgan jamiyatda ota-onalar bolalarga ertak aytib berishdan ko'ra ularga telefon yoki planshetlarni berib qo'yishni avzal ko'rmoqda. Ota-onalar uchu bu eng oson yo'l bo'lib qolgan. Lekin bu orqali ularga yaxshi tarbiya bera olyapmizmi?!

Bolalar kelajakda komil inson bo'lib yetishishlari uchun ular avvalo o'zlarining tarixi haqida, an'ana va qadriyatlari haqida chuqur bilishlari lozim. Buning eng oson va samarali yo'li esa ularni xalq ijodi namunalari bilan tanishtirishdir. Chunki, o'zbek xalq ijodi namunalarida xalqimizning o'tmishi, urf-odatlarini, qadriyatlarini hamda ichki kechinmalari bayon etilgan.

Hattoki yangi tug'ilgan chaqaloqqa alla aytar ekanmiz, uning tinchlanganiga guvoh bo'lamiz. Lekin u hali hech bir so'zimizni tushunmaydiku! Nega alla aytganimizda tinchlanadi? Chunki onalarimizdan, momolarimizdan meros bo'lib kelayotgan allada keng ma'no, orzularimiz hamda ichki kechinmalarimiz mujassam. Ushbu kechinmalar, his-tuyg'ular farzandlarning ongiga emas balki, qalbiga yetib boradi.

Shunday ekan maktabgacha yoshda ya'ni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bola tarbiyasida xalq og'zaki ijod namunalaridan foydalansak ikki barobar ko'proq natijalarga erishamiz. Chunki u endi go'dak emas, u endi nafaqat qalbi bilan balki ongi bilan, butun vujudi bilan eshita oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, ma'nan yetuk, axloqan yuksak insonlar bo'lib voyaga yetishi ko'p jihatdan oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida ularga berilgan mana shu bolalik qo'shig'i bo'lgan folklor asarlaridan ta'lim-tarbiya tizimida samarali foydalanishga bog'liqdir.

Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida qabul qilingan —Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» da ham o'z aksini topgan.

Konsepsiyaning beshinchi bobida aynan maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish, bu davrdan boshlab bolalarda ijobiy xulq motivlarini, «O'zbekiston — mening Vatanim!» tuyg'usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalash, o'g'il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g'urur, qat'iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollardan foydalanib, MTT tarbiyachi-pedagoglari va ota-onalar uchun alohida uslubiy ishlanmalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning muhim vazifalari sifatida belgilab berildi. Bu vazifalar albatta, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Xalq dostonlari xalq ma'naviy qadriyatlari, an'analari mujassamlashtirilgan xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lib, unda musiqa bilan she'riyat uyg'unlashgan. Dostonlarning g'oyaviy va ma'rifiy ahamiyati shundaki, ularda yuksak go'zallikka va baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo'li maqsadlar sari qat'iy intilishdan, sabr-chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishdan

iboratdir, degan g'oya ilgari suriladi. Dostonlarda milliy g'urur tuyg'usi kuylovchi va tinglovchi o'rtasidagi badiiy-estetik muloqot shakllanadi.

Milliy tuyg'ularni shakllantirishda samarali ta'sir etuvchi shakllardan yana biri – latifalardir. Latifalar asosida tarixiy voqealar, maishiy hodisalar yotadi. Ziyraklik, o'tkir hajv, hozirjavoblik, hajm jihatdan ixchamlik, mazmunan teranlik latifalarning asosiy tamoyili hisoblanadi. O'zbek xalk latifalarining asosiy qahramoni Nasriddin qiyofasi orqali nodonlik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, munofiqlik, ochko'zlik, ayyorlik, ishyoqmaslik kabi ma'naviyatga zid illatlar qoralanadi. Go'zallik, donolik, zukkolik, rosguylik, mehnatsevarlik, mehmondo'stlik, himmat, mehroqibat, saxiylik, ilmlilik, insonparvarlik kabi yuksak qadriyatlar ulug'lanadi.

Maqol va matallar esa turli millat kishilarining ma'naviy yetuklik, zukkolik belgisi bo'lib, ularning tub mohiyatlari, orzu-armonlari umumiyligining ko'rsatkichlaridir.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, milliy tarbiya hayotning mohiyati, ichki aloqa va munosabatlarini aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan yoshlar emas, ijodkor, iste'dodi bilan ajralib turuvchi bolalarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabgacha ta'lim davrida milliy tarbiya bolajonlarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ularda tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi. Shunday ekan, har bir yosh avlod milliy qadriyatlarimiz haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. Mirziyoyev. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017.
2. Sh. Mirziyoyev. Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi. –Toshkent, 2019. 7 aprel. – № 68.
3. Sh. Mirziyoyev. «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-4307-son qarori. – T., 2019. 3 may.